

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA UNING “YOSHLARGA MUROJAAT” MAQOLASI ЖИЗНЬ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И ЕГО СТАТЬЯ «ОБРАЩЕНИЕ К МОЛОДЕЖИ» THE LIFE OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI AND HIS ARTICLE “ADDRESS TO THE YOUTH”

Yodgorova Soliha Obidjon qizi

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
islomshunoslik mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, jadidchilik harakatidagi o‘rni, uning matbuot va ta’lim sohasidagi xizmatlari Behbudiyning publitsistik faoliyati orqali Turkiston xalqlari orasida ilm-ma’rifatni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgani haqida atroflicha ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, uning “Yoshlarga murojaat” maqolasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik, matbuot, ta’lim, ma’rifat, Turkiston, milliy uyg‘onish, Yoshlarga murojaat.*

Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalaridan biri, ma’rifatparvar, publitsist, noshir va dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudi 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li diniy olim bo‘lib, Ahmad Yassaviy avlodlaridan hisoblanadi.

Behbudi dastlab otasidan Qur’on ilmini o‘rgangan va qorilik martabasiga erishgan. Keyinchalik 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida o‘qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog‘asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada o‘qishini davom ettirib, arab tili gramatikasi, aqida va shariat qonunlari bo‘yicha bilimlarini mustahkamlagan.

18 yoshida madrasani tamomlab tog‘asi qo‘l ostida mirzalik faoliyati bilan shug‘ullanadi. Shar’iy bilimlarni puxta egallagach qozi va mufti lavozimlarini egallaydi.

1899-1900-yillarda Behbudi buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudi bu safar haqida shunday deb yozadi: “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasila borib edim. Muddati

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi”. Bu sayohat, dunyo ko‘rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu sayohat uning hayot yo‘lida, kelajakda bo‘ladigan hodisalar, yangiliklarni boshlab berdi. Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, “jaholat uyi”ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tamomila o‘zgartirib yubordi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati musulmon xalqlarini jaholatdan chiqarib, ilm va taraqqiyot sari yo‘naltirish maqsadida yuzaga kelgan edi. Behbudiy bu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘zining maktabini ochishga qaror qiladi. Bu esa o‘sha davr uchun katta islohot edi. Sayohati davomida uning yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. 1903-yilda birinchi yangi usul maktabini Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda ochadi. Bu maktablarda adabiyot, jug‘rofiya, islom tarixi, matematika, geografiya, tarix, rus tili va tabiiy fanlar o‘qitila boshlandi.

Behbudiy Qozon va Ufaga borib u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo‘lga qo‘yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi va quyidagi kitoblarni chop ettiradi:

1. “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904),
2. “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905),
3. “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906),
4. “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908),
5. “Amaliyoti islom” (1908),
6. “Tarixi islom” (1909).

1908-yilda Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o‘z hovlisiga ko‘chirib keltiradi.

Oradan 11 yil o‘tib, 1919-yil 25-martda Behbudiy Qarshi shahrida sirli ravishda qatl qilinadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatiga nazar tashlanar ekan, u Turkiston o‘lkasida milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surib, nafaqat ta‘lim balki matbuot va teatr sohalarida ham ulkan ishlarni amalga oshirgani ko‘rinadi. Behbudiy xalqni ilmiy ma‘rifat bilan tarbiyalashga da‘vat qilgan, eski qarashlarni rad etib, yangi usul

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

maktablarini ochish tarafdori bo'lgan. Uning "Yoshlarga murojaat" maqolasi ana shu g'oyalarning yorqin ifodasidir.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi xalqni savodsizlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar bilan tanishtirish, milliy uyg'onishni rag'batlantirish edi. Behbudiy bu borada faqat ta'lim bilan cheklanmay, matbuot va adabiyot orqali faol targ'ibot olib borib, matbuot sohasida ham katta iz qoldirgan.

U 1913-yilda "Samarqand" gazetasini, 1914-yilda esa "Oyina" jurnalini tashkil etib, ularda ko'plab maqolalar chop etgan. Bu nashrlar orqali u xalqni ilm-ma'rifat sari undashga harakat qilgan. "Oyina" jurnalida xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, ta'lim muammolari va islohotlar haqida maqolalar bosilgan.

U o'z maqolalarida yoshlarni ilm olishga, zamonaviy kasblarni egallashga chaqirib, *"millat taraqqiyoti ilm va ma'rifatda"* ekanini ko'p bora ta'kidlagan. Bu fikr hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Yoshlarga murojaat" maqolasi 1913-yilda yozilgan bo'lib, "Oyina" jurnalining 1914-yil 21-sonida chop etilgan. Behbudiy ushbu maqolasida o'sha davrdagi Turkiston va Buxorodagi yoshlarni ilm olishga, zamonaviy bilimlarni egallashga chaqiradi. Uning fikricha, taraqqiyot yo'lida eng muhim vosita – bu ilm va ma'rifat bo'lib, odamlar bilimga qarab jamiyatdagi mavqeini aniqlaydi.

Maqolada u: *"Hamvatanlarimiz molini sotib to'y qilganidek, siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qumog'iga sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturg'on oqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz!"* deb otionalarni farzandini to'yiga pul sarflagandek, ta'lim olishi uchun ham xuddi shunday sarmoya kiritishlariga chaqirgan.

Bu fikrlar xalqning e'tiborini ilm olish muhimligiga qaratish uchun yozilgan. Behbudiy o'z maqolalarida shunchaki shior emas, balki aniq takliflar berib, xalqni harakat qilishga da'vat etgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim tizimini isloh qilish yo'lida katta ishlarni amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi eski usul maktablarni isloh qilish va yangi usul maktablarini tashkil etish edi. U o'z maktablarida bolalarga arab yozuvi bilan birga rus tili, tarix, geografiya, matematika kabi zamonaviy fanlarni o'rgatgan.

Uning fikricha, xalq taraqqiyoti uchun diniy ta'lim bilan birga dunyoviy va zamonaviy ta'lim zarur edi. U "xalq o'z farzandlariga ilmni o'rgatmasa, kelajakda

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

orqada qoladi” deb hisoblab, bolalarni yoshligidan ilmga oshno qilish tarafdori bo‘lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Begali Qosimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy“. kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi (2014-yil 19-yanvar).
2. Zaynobidin Abdirashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola./Z.Abdira-shidov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
3. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Ёшларга мурожаат. Тошкент: «Маънавият», 2022.
4. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2005.